

Oriental Journal of Education



THE PEDAGOGICAL CONTENT OF DEVELOPING TECHNO-AESTHETIC CULTURE IN STUDENTS BASED ON INNOVATIVE TEACHING OF PHILOSOPHICAL DISCIPLINES

Dostonbek Nurmatov
Independent Researcher
Fergana State University
Fergana, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: techno-aesthetic culture, philosophy, component, empirical, pedagogical feature, methodology, competence, technogenic, aesthetic value, aesthetic education, aesthetic culture, methodological support.

Received: 15.02.26

Accepted: 16.02.26

Published: 17.02.26

Abstract: This article studies the theoretical and methodological foundations of the development of techno-aesthetic culture in students, the methodological support for the development of techno-aesthetic culture in students on the example of philosophical disciplines, the effectiveness of the development of techno-aesthetic culture in students on the basis of philosophical disciplines. Also, the theoretical aspects of the development of techno-aesthetic culture in students are analyzed.

FALSAFA FANLARINI INNOVATSION O'QITISH ASOSIDA TALABALARDA TEXNOESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

Dostonbek Nurmatov
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: texnoestetik madaniyat, falsafa, komponent, empirik, pedagogik xususiyat, metodologiya, kompetensiya, texnogen, estetik qadriyat, estetik tarbiya, estetik madaniyat, metodik ta'minot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, falsafa fanlari misolida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning metodik ta'minoti, falsafa fani asosida talabalarda talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, Falsafa fanlarini innovatsion o'qitish asosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mazmuni tahlil qilingan.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ТЕХНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ДИСЦИПЛИН

Достонбек Нурматов

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: техно-эстетическая культура, философия, компонент, эмпирический, педагогическая особенность, методология, компетентность, техногенный, эстетическая ценность, эстетическое образование, эстетическая культура, методологическая поддержка.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы развития техно-эстетической культуры у студентов, методическое обеспечение развития техно-эстетической культуры у студентов на примере философских дисциплин, а также эффективность развития техно-эстетической культуры у студентов на основе философских дисциплин. Кроме того, анализируются теоретические аспекты развития техно-эстетической культуры у студентов.

Kirish. Oliy ta'limda falsafiy bilimlarni, xususan, "Falsafa" o'quv fanini o'zlashtirishda talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning o'ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud. Falsafa" o'quv fanini o'zlashtirish asnosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish ta'limning bir qator shakllaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish jarayoniga "Falsafa" o'quv fanini o'qitish asnosida tizimli yondashuvning ham o'ziga xos jihatlari mavjud. "Falsafa" o'quv fanini o'qitish asnosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llarini aniqlab olish lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, falsafa fanlari misolida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishning metodik ta'minoti, falsafa fani asosida talabalarda talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish samaradorligi kabi masalalar P.Churchlend, R.Penrouz, S.Hammeroff, J.Serl, D.Chalmers, A.Tyuring, J.Russel, P.Norvig, P.Uinston, N.Nillson, L.V.Polyakova, N.V.Golik, S.A.Simonova, V.P.Fetisov, I.Y.Bulgakova, I.M.Melikov, YE.A.Ruzankina, A.O.Koptelov, Y.V.Sharanovskaya, A.I.Burov, M.A.Verba, YE.V.Kvyatkovskiy, B.T.Lixachev, G.Bolxovskiy, N.A.Vetlugina, A.Q.Qodirov, M.Z.Abdullayeva, A.G.Mo'minov, G.G'.G'affarova, A.I.Tulyayev va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Natijalar va muhokama. Talaba "Falsafa" o'quv fanini o'zlashtirishda quyidagi ko'nikma va malakalarga (o'quv fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan) ega bo'lish kerak:

1) ma'lumot bilan mustaqil ishlash: asosiy holatlarni aniq, muntazam konspekt va chizma shaklida qayd etish; o'quv topshiriq-vazifalarini yechish uchun zarur bo'lgan axborotlarni topish, tanishish, tushunish, tanqidiy baholash, yig'ish va ularni loyiha, esse, hisobot ko'rinishda taqdim etish; qo'yilgan talablar asosida ilmiy matnini (maqola, ma'ruza, tezis) yaratish;

2) taqdim etish malakalari: o'quv topshirig'ini bajarish natijalari haqida so'zlayotib o'zini dadil tutishi, turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishi;

3) o'qituvchi va talaba hamkorligi: talabaning o'z nuqtai nazarini himoya qilishi, suhbatga kirisha olishi, savol javoblarni, baxs-munozara qoidalariga rioya etishi, tortishuvlarda o'z qarashlarini asoslay bilish;

4) guruhda o'zaro harakatga tayyorligi va qodirligi – o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarishga, jamoa bo'lib ishlashga, vazifani yechishda jamoaviy muloqot, o'zaro harakat, bir-biriga yordam va o'zaro baholashda namoyon bo'ladigan hamkorlikda ishlash malakalarini egallash;

5) muammoli vaziyatlarda faol ishtirok etish – ta'limiy muammoli vazifalarni tahlil qilish, o'quv topshirig'ini yechishning murakkab yo'llarini topish, g'oyalar yaratish va xulosalarni chiqarish;

6) axborotni yig'ish, qayta ishlash va saqlash borasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish.

Ta'lim jarayonida talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va bu bilimlarni hali inson tahlil qilishi va chuqurroq o'rganishi kerak bo'ladi.

“Falsafa” o'quv fanini talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan holda o'qitishda ta'lim texnologiyasi jamiyatning demokratlashuvi sharoitida ta'lim berishning dolzarbligi asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi tuzilmasi bayon etiladi, ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari, loyihalangan ta'lim berish texnologiyasi qisqacha ta'riflanadi.

Falsafa fanlarini innovatsion o'qitish asosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishda quyidagi mavzular metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish jarayoniga “Falsafa” o'quv fanini o'qitish asnosida tizimli yondashuvning ham o'ziga xos jihatlari mavjud.

“Falsafa” o'quv fanini o'qitish asnosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llarini aniqlab olish lozim. Mazkur o'quv fanida loyihalashtiriladigan ta'lim texnologiyalarining tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari quyidagilarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir: oliy o'quv yurtida ta'limni texnologiyalashtirish qoidasi; o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, vazifalari, mazmuni va hajmi; davlat ta'lim standarti, o'quv rejasida belgilangan vaqt va sharoitda ta'lim maqsadiga erishishni kafolatlovchi muloqot yo'llari va vositalarini tanlashning konseptual yondashuvlari.

Falsafa fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv dasturga asoslan o'tiladigan mavzulardan 13-mavzuning nomi “Estetika” mavzusi hisobalandi. Mazkur mavzu doirasida dunyoni estetik idrok

etishning mohiyati, estetik ong va uning strukturasi, estetikaning asosiy kategoriyalari: ulug'vorlik, tubanlik, fojiaiviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, xayoliylik va qiziqarlilik hamda Sharq va G'arb mutafakkirlarining estetik qarashlari tahlil qilinadi va talabalarda yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga xarakat qilinadi.

Biroq, bugungi raqamli dunyoda estetika bilan texnika-texnologiyalarning munosabti, texnologiyalarning rivojlanishi natijasida san'atning o'zgarishi va yangicha qoidalar va shu asosida yo'nalishlarning paydo bo'lishi jadallashib bormoqda. Bunday vaziyatda estetikaning zamonaviy muammolarini ham tadqiq etish, texnogen sivilizatsiyaning estetik, didni tarbiyalashga doir muammolari kuchayib bormoqda. Bu esa talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlantirish texnika, texnologiyaning asl san'atni va go'zallikni targ'ib qilishdagi imkoniyatlaridan unumli foydalanish vazifalari yuzaga chiqmoqda.

Chunki texnogen sivilizatsiya san'atda yangicha yo'nalishlarni yuzaga keltirish bilan birga ommaviy didsizlikni shakllantirishda ham asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham Falsafa ta'limida texnologik taraqqiyotning estetik didni shakllantirishdagi imkoniyatlarini o'rganish maqsadida "texnoestetik madaniyatni rivojlantirish"ga ham alohida e'tibor qaratishi, raqamli dunyoda texnologiyalarning ahamiyatini estetik baholashi va shu asosida talabalarining estetik madaniyatini rivojlantirishi talab etiladi. Buning uchun esa falsafa ta'limida "Texnika falsafasi" va "Texnika estetikasi" fanlarini uyg'unlashtirish, ularning texnoestetik madaniyatni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini talabalarga o'qitish, dunyoqarashini shakllantirish va shu asosida texnoestetik madaniyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq vazifa hisobalandi.

Xulosa. Shu ma'noda, texnika estetikasi, falsafa bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, bu uning ijtimoiy amaliyot bilan, bog'liqligida namoyon bo'ladi. Falsafaning miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlari, vorisiylik prinsiplari texnika estetikasida ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnika estetikasida; uyg'unlik, mutanosiblik, me'yor kabi falsafiy-estetik qonuniyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa fanini interafaol o'qitish asosida talabalarda texnoestetik madaniyatni rivojlanganligini o'lchashning maqsadli-ahamiyatli mezonining bilish komponenti talabada falsafa fanlarni o'rganishga qiziqish bor-yo'qligini, "Falsafa" o'quv fani mashg'ulotlari davomidagi faollikni, o'z nuqtai nazariga ishonitirish salohiyatini, fikrning tahliliyligini va o'ziga to'g'ri baho bera olish qobiliyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Мемфорд Л. Техника и природа человека // Новая технократическая волна на Западе. – Москва.: Прогресс. 2012. –С.156.
- 2.Муминов А.Г. Ўзбекистон: ахборотлашган жамият сари. – Тошкент: Турон замин зиё, 2013

3.Полякова Л.В. Этико-эстетический идеал в системе современного философского знания: автореф. дисс.канд. филос. наук.– Тула: 2012

4.Туляев А.И. Виртуал оламнинг ахлокий муаммолари (фалсафий таҳлил): Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2021

5.Шермухамедова Н. Техника фалсафаси // Ўқув-услубий мажмуа. –Тошкент.: ЎзМУ. 2013.